



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmizro</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbasovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	



IJTIMOIIY-MADANIY QADRIYATLAR VARIATSIYASI SHAROITIDA TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Vorisova Barnoxon Olimjon qizi

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik mazmuni tahlil qilingan. Globallashtirish, raqamlashtirish va axborot makonining kengayishi natijasida yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarning yoshlar mutolaa madaniyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning mazmuniy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, didaktik imkoniyatlari hamda adabiyot fanining bu jarayondagi o'rnini ilmiy asoslangan. Talabalarda kitob tanlash, badiiy asarlarni tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishning samarali yo'llari tavsiflangan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, qadriyatlar variatsiyasi, kitobxonlik madaniyati, talaba, adabiyot fani, mutolaa, badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiya, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, mutolaa kompetensiyasi, axborot madaniyati.

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical content of developing a reading culture in students in the conditions of variation of socio-cultural values. The impact of socio-cultural changes occurring as a result of globalization, digitization and the expansion of the information space on the reading culture of young people is highlighted. Also, the content components of the development of a reading culture, pedagogical conditions, didactic opportunities and the role of literature in this process are scientifically based. Effective ways of selecting books, analyzing works of art, critical and creative thinking, and forming a spiritual worldview based on national and universal values are described in students. The results of the study are of significant scientific and practical importance in improving the content of education aimed at developing a reading culture in higher education institutions and implementing modern pedagogical approaches into practice.

Key words: socio-cultural values, value variation, reading culture, student, literary science, reading, fiction, spiritual education, critical thinking, creative thinking, pedagogical approach, competency-based approach, higher education, reading competence, information culture.

Аннотация: В данной статье анализируется теоретико-педагогическое содержание развития культуры чтения у студентов в условиях изменения социокультурных ценностей. Подчеркивается влияние социокультурных изменений, происходящих в результате глобализации, цифровизации и расширения информационного пространства, на культуру чтения молодежи. Также научно обоснованы содержательные компоненты развития культуры чтения, педагогические условия, дидактические возможности и роль литературы в этом процессе. Описаны эффективные способы отбора книг, анализа произведений искусства, критического и творческого мышления, а также формирования духовного мировоззрения на основе национальных и универсальных ценностей у студентов. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для совершенствования содержания образования, направленного на развитие культуры чтения в высших учебных заведениях, и внедрения современных педагогических подходов в практику.

Ключевые слова: социокультурные ценности, вариативность ценностей, культура чтения, студент, литературоведение, чтение, художественная литература, духовное воспитание, критическое мышление, творческое мышление, педагогический подход, компетентностный подход, высшее образование, читательская компетентность, информационная культура.



KIRISH

Kitob, uni mutolaa qilish istagi mustaqil hayotga qadam qo'ygan, biroq hali hayotiy maqsadlari yetarlicha aniq bo'lmagan va ayni vaqtda intellektual yetuklikka intilayotgan talabalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ammo, afsuski, global axborotlashuv ta'sirida asrlar davomida insoniyat tomonidan ulug'lab kelingan yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga nisbatan yondashuv tubdan o'zgardi. Insoniylik tamoyillari inkor qilinib, ularning o'rnini individualizm, axloqsizlik, moddiyatga o'chlik, raqamli qaramlik kabi salbiy odatlar egallamoqda. Mavjud sharoitda kitobxonlik talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan asriy umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, integral yondashuvni taqozo qiladi.

Insoniyat tarixida shaxs va jamiyat erishgan eng muhim yutuqlardan biri kitobga ega bo'lish, uni mutolaa qilishdir. Kitob vositasida xronologik davrlar o'rtasidagi to'siqni yengib, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot davomida insoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar, shakllangan g'oya, ta'lim va nazariyalar bilan tanishish mumkin. Kitobga, uning mutolaasiga bo'lgan munosabat shaxsning ma'naviy-axloqiy, aqliy va estetik jihatdan shakllanishiga, o'z-o'zini rivojlantirishga, dunyoqarashini boyitishga yordam beradi.

Shu sababli asrlar davomida insoniyatning kitobga bo'lgan munosabati ijobiy xarakter kasb etib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalashda ularda ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishga e'tibor qaratilgan. Shaxsning kitobga, uni mutolaa qilishga bo'lgan ijobiy munosabati "kitobxonlik madaniyati" tushunchasining mohiyatida o'z ifodasini topadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kitoblarning eng muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ularning shaxsda bilimlarni hosil qilish, fikrlash, idrok, tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, ijobiy xarakterni tarkib toptirish, hayot va turmush ziddiyatlarini yechish yo'llarini o'rgatish [1. B. 38], xorijiy tillarni o'rganish hamda o'rganilayotgan til bo'yicha lug'at zaxirasini boyitish imkoniyatiga egaligi bilan belgilanadi [2. B. 921]. Kitoblarning iqtisodiy tavsifi esa ularga ega bo'lish va ulardan foydalanish tannarxining nisbatan pastligi, jamoaviy foydalanish imkoniyati, ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlari hamda maxsus bepul elektron platformalar (masalan, Ziyonet) orqali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Talabalar kitobxonligini yoritishda, avvalo, "mutolaa", "kitobxonlik" va "kitobxonlik madaniyati" tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlab olish zarur. Ilmiy manbalarda mutolaa grafikli qayd etilgan matnni mazmuniga ko'ra qabul qilish, anglash, tahlil qilish va qayta ishlashga yo'naltirilgan nutqiy-bilish faoliyati sifatida tavsiflanadi. Bu jarayonda shaxs matndagi axborotni idrok etadi, uni tahlil qiladi va o'zining bilim hamda hayotiy tajribasi bilan uyg'unlashtiradi [3. B. 23].

O'zbekistonlik olim A.A. Umarov mutolaani bilish, o'rganish va ilm olishga xizmat qiluvchi faoliyat sifatida baholab, uning asosida shaxsning faolligi, maqsadga yo'naltirilganligi hamda matnda mujassam bo'lgan axborotni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji yotishini ta'kidlaydi [4. B. 88]. Olimning fikricha, mutolaa shaxsning intellektual rivojlanishi va ma'naviy kamolotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Pedagog olim N.A. Muslimovning ilmiy qarashlariga ko'ra, kitob mutolaasi talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U mutolaa jarayoni orqali shaxsda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholash malakalari shakllanishini qayd etadi.

Rus psixologi L.S. Vygotskiyning sotsiokultural rivojlanish nazariyasida ham mutolaa shaxsning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Olimning fikricha, kitob orqali o'zlashtirilgan bilimlar tafakkur, nutq va muloqot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida mutolaa inson tafakkurining mantiqiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xorijiy tadqiqotchi Mortimer J. Adler esa o'zining *How to Read a Book* asarida samarali mutolaa faqat matnni o'qish emas, balki uni tahlil qilish, muallif g'oyalarini anglash va tanqidiy baholash jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kitobxonlik madaniyati insonning mustaqil fikrlashi va uzluksiz ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish talabalarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini mustahkamlash hamda mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida kitob mutolaasiga qiziqishni oshirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilishda tizimli yondashuv, qiyosiy-taqqoslash, tahlil va sintez, umumlashtirish hamda mantiqiy xulosalash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini kitobxonlik madaniyati, mutolaa jarayoni va talabalarining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali kitobxonlik madaniyatining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari va talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy axborot muhitining mutolaa jarayoniga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan baholandi. Shuningdek, mutolaa, kitobxonlik va kitobxonlik madaniyati tushunchalarining mazmuni o'zaro qiyoslanib, ularning talaba shaxsining intellektual, ma'naviy va axloqiy kamolotidagi o'rni tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Mazkur metodologik yondashuvlar talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, kitob mutolaasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asoslash hamda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Darhaqiqat, nutqiy xarakterga ega mutolaa jarayonida fikrlash-bilish faoliyati namoyon bo'ladi hamda uning negizida matnning grafikli shakli asosida mazmuni o'zlashtiriladi, idrok etiladi, o'zlashtirilgan ma'lumotlar qayta ishlanadi.

A.A. Umarovning fikriga ko'ra, mutolaa faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan bilish, o'rganish, ilm olishga xos hodisa bo'lib, uning zahirida faollik, maqsad sari yo'naltirilganlik, o'qish va ijtimoiy sub'ektning turli ehtiyojlariga qarab matndagi ma'lumotni egallashi yotadi [4. B. 88]. Muallifning yondashuvida g'alizlik ko'zga tashlanadi. Bizning nazarimizda quyidagicha bayon qilinishi muallif tomonidan fikrning yaqqol ifodalanishini ta'minlagan bo'lar edi: mutolaa – bilish, anglash va ta'lim olishga qaratilgan faoliyat jarayoni, shaxs yoki ijtimoiy sub'ektlarga xos ijtimoiy-individual hodisa bo'lib, uning negizida munosabat, faollik, maqsadga yo'nalganlik (yoki yo'naltirilganlik), o'qishga, tegishli matnda mujassamlangan axborot va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj yotadi.

Manbalarda "mutolaa" tushunchasi bilan birga "mutolaa madaniyati" atamasi ham qo'llaniladi va har ikki tushuncha bir-biridan farqlanadi. Fikrimizcha, mutolaa shaxsning bilish-anglashga qaratilgan harakatini, mutolaa madaniyati esa uning darajasini ifodalaydi. "Mutolaa madaniyati" tushunchasi ham turlicha yoritiladi. Masalan, mutolaa madaniyati – "ijtimoiy guruhlar, uyushmalar, alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor, faoliyatlari mazmuni, tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar"; shaxsda mutolaa ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi; "o'quvchining o'qilayotgan kitobga va uning sifatiga bo'lgan baholovchi munosabati" [5. B. 4].

Bizningcha, mutolaa madaniyati shaxsning o'zi tomonidan o'qilayotgan matnga ijobiy yondashuvi, shu bilan birga to'g'ri, tezkor, ifodali va idrok qilgan holda o'qish qoidalariga amal qilish darajasini ifodalovchi munosabatdir.

"Kitobxon madaniyati" tushunchasi negizida kitob, kitobxon, kitobxonlik atamaları aks etadi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da "kitob" tushunchasiga shunday izoh berilgan: kitob – "axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. YuNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashr shartli ravishda kitob deb qabul qilinadi" [6. B. 616]. Mazkur izohni o'z ichiga olgan manba qariyb chorak asr oldin chop etilgani inobatga olinsa, YuNESKOning "kitob" atamasini ifodalovchi ta'rifi o'rinli sanaladi. O'tgan vaqt mobaynida global axborotlashuv ta'sirida "kitob" atamasini mantiqan boyitishni talab qiladigan hodisalar ro'y berdi. Bugungi kunda nafaqat taboqlangan bosma nashr, shu bilan birga elektron variantda taqdim etilayotgan kitoblar ham mavjud.

Elektron kitob – "qog'ozsiz, muqovasiz va yelimsiz bo'lgan kitob turi". Anglanganidek, keltirilgan ta'rif elektron kitobning mohiyatini to'liq ifodalab bera olmaydi. Binobarin, "elektron" tushunchasi bu turdagi har qanday mahsulotning yaratilishida asosiy vosita bo'lgan qurilma va jihozlar, axborot texnologiyalari yordamida yoritilishi zarur. Qisqa qilib aytganda, elektron kitob – "bu fayl (muayyan usullar bilan kodlashtirilgan matnli axborot)" [7. B. 195].

Bu o'rinda quyidagi ta'riflar "elektron kitob" ning umumiy tavsifini nisbatan to'liq va batafsil yoritadi: elektron kitob – "badiiy asarni turli elektron qurilmalar (smartfonlar, planshetlar, riderlar), shuningdek, bu kabi o'lchamdagi manbalar bilan tanishishga imkon beruvchi qurilmaning o'zi yordamida o'qish uchun raqamlashtirilib, kitob shaklida taqdim qilinadigan kitob bo'lib, u turli dastur va gadjetlar uchun mos keladigan xilma-xil o'lchamlarda



bo'ladi; EPUB, FB2, PDF, RTF, DOC, MOBI, TXT elektron kitoblar e'lon qilinadigan ommabop formatlardir". Zamonaviy kitobning bu turi noan'anaviy kitob, raqamli kitob, elektron nashr kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Elektron kitoblar bosma kitoblardan ma'lum xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Ularda "bir-biriga yopishgan ikki sahifa bo'lmaydi, chunki bunday qilinganida harflarning shrifti keskin kichrayadi. Sahifalar diskret (alohida-alohida) emas, balki kinofilmdagi kadrlar kabi "tasma"da birin-ketin o'tkaziladi. Bu turdagi kitoblarda tasvirlar matn bilan juda sust uyg'unlashib, alohida "rasmlar" sifatida qabul qilinadi. "Muvozanat" tushunchasi o'z ma'nosini, matn esa o'zining estetik funksiyasini yo'qotadi va faqat axborot manbaiga aylanadi".

Bildirilgan fikrlardan bosma va elektron kitoblarning tavsifini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) bosma kitobga xos xususiyatlar:

- qattiq yoki yumshoq qog'oz, mato yoki teridan iborat murakkab konstruksiyali muqovaga egalik;
- taboqli bo'lish;
- alohida sahifa va ichki (ikki sahifaning birga yopishtirilishi) sahifaning mavjudligi;
- barcha sahifalarning yagona kitob to'plami (bloki)ni hosil qilishi;
- barcha sahifalarning "ildizi"dan tikilishi va yelimlanishi;
- sahifalarning konstruksiyaga "ildizi"dan matoli kapital yordamida mahkamlanishi;
- sahifalarning raqamlar bilan ajratilishi;
- sahifalarning tartib raqamlariga muvofiq ketma-ket kelishi;
- matn va tasvirning o'zaro uyg'un bo'lishi;
- o'qilayotgan sahifani belgilash uchun ingichka bog'ich yoki yupqa tasmaning bo'lishi;

2) elektron kitobga xos xususiyatlar:

- taboqli va alohida, murakkab konstruksiyali muqovaga ega bo'lmasligi, fayl shaklida taqdim etilishi;
- matnning sahifalarda emas, ko'p hollarda kinofilmlardagi kabi "tasma"da taqdim qilinishi;
- matn va tasvirning o'zaro uyg'un bo'lmasligi, tasvirlarning alohida "kartina" sifatida namoyon bo'lishi.

Kitobxon – kitobsevar, kitob o'qishni yoqtiradigan shaxs (odatda -xon qo'shimchasining predmetga qo'shilishi ijobiy ma'noni hosil qiladi).

Shaxs kitobxonligi (yoki kitobxonlik) – kitobsevar, kitob o'qishni yoqtiradigan shaxsning mutolaa borasidagi faoliyati; shaxsning kitobga nisbatan ijobiy munosabati, izchil mutolaa bilan shug'ullanib borishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jarayoni diagnostik-aniqlashdan boshlanib, motivatsion shakllantirish, adabiy-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, qadriyatli munosabatlarni qaror toptirish, tanqidiy-refleksiv tafakkurni takomillashtirish, kommunikativ tajribani boyitish va kitobxonlik madaniyatini shaxsning barqaror hayotiy ehtiyoji sifatida mustahkamlashga qadar bo'lgan izchil va o'zaro bog'liq bosqichlar tizimini tashkil etadi. Bu bosqichlar yig'indisi mazkur pedagogik jarayonning ichki mantig'ini hamda uning samarali amalga oshirish mexanizmlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сафарова Д.С. Китобхонлик маданиятини шакллантириш орқали ўқувчи-ёшларни турли ёт ғоялар таъсиридан ҳимоя қилиш // Ж. Современное образование (Ўзбекистан). – 2017. – № 6. – 38-б.
2. Муминова Н.М. Чтение как средство обучения // Ж. Экономика и социум. – 2020. – № 6 (73). – С. 921.
3. Как хорошо уметь читать! А уметь хорошо читать – ещё лучше // <https://habr.com/ru/articles/591051>.
4. Умаров А.А. Мутолла маданияти: шахс, жамият тараққиёти. – Т.: Фан, 2004. – 88-б.
5. Мелентьева Ю.П. Понятие "культура чтения" в контексте русской культурной традиции // <http://www.gpntb.ru/win/inter-events/crimea2007/cd/11.pdf>.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебуннисо – Конирил: 4-жилд / Бош тахрир ҳайъати аъзолари: М. Аминов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. – 616-б.
7. Макарова К.В. Электронная книга как современный культурный феномен // Ж. Историческая и социально-образовательная мысль. – Краснодар, 2016. – № 6/1. – Том 8. – С. 195.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.